

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA KISHI XARAKTERIDAGI AYRIM JIHATLARNING IFODA ETILISHI

Murtazayev Sherzod Dilshodovich

Samarqand davlat chet tililar instituti

Xorijiy til va adabiyoti 2- kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, frazeologik birikmalarda ulardan maqollarda shaxs va uning xarakter xususiyating ifodalanishi haqida ayrim tasavvurlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: milliy – madaniy xususiyatlari, M. Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk”, Ikki jildlik “O‘zbek xalq maqollari” akademik to‘plami, Yaxshilik va yomonlik, yaxshi inson tushunchasi

KIRISH

Maqollar xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari singari har bir xalqning milliy adabiy va madaniy boyligi hisoblanadi. Ular xalqning milliy – madaniy xususiyatlari va uning qirralarini, dunyoqarashi, axloqiy me‘yor va prinsiplarini, millatning ruhiy holatini to‘liq ifodalaydi”. O‘zbek maqollarining o‘rganilish tarixi: o‘zbek xalq durdonalarini, o‘zbek xalq ijodining ommaviy janrlaridan biri bo‘lgan maqollarni to‘plash va o‘rganish tarixi ham, ulardan yozuvchi va olimlarning o‘z asarlarida foydalanishi ham uzoq davrlarga borib taqaladi. Xususan, XI asrning buyuk olimi M. Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk” asarida turk tili oilasiga kiruvchi xalqlarning maqollaridan keng foydalangan. Har bir xalqning maqollar zaxirasi o‘ziga xosdir. O‘zbek xalq maqollari o‘zbek xalqi donishmandligining hosilasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbek maqollari tasnifi masalasi bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan mavzu hisoblanadi. Ikki jildlik “O‘zbek xalq maqollari” akademik to‘plamida maqollar alifbo tartibida berilgan. “Alfavitli tasnif” to‘plamda “Balandparvoz so‘zlar” deb qabul qilingan. Tuzuvchilar Sh.Shomaqsudov va Sh.Shoraxmedovlar o‘zlarining “Ma’nolar maxzani” to‘plamida ham maqollarni alifbo tartibida joylashtirganlar. To‘plam 20 ming maqolni o‘z ichiga oladi. Unda maqollarning etimologiyasi va muqobillari keltirilgan.

Boshqa to‘plamlarda, asosan, maqollarning predmetli-mavzuli tasnifidan foydalanilgan. Masalan, “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida 30 predmetli mavzu guruhi taqdim etilgan:

- 1) Vatan va vatanparvarlik haqida;
- 2) mehnat va mehnatsevarlik haqida;
- 3) kollektivizm;

- 4) do'stlik va kelishmovchilik haqida;
- 5) fan va san'at haqida;
- 6) donolik va johillik haqida;
- 7) mardlik va insoniylik haqida;
- 8) jasorat va qo'rqoqlik haqida;
- 9) hushyorlik va ehtiyotkorlik haqida;
- 10) oila va yaqinlar haqida;
- 11) sevgi va sadoqat haqida;
- 12) kattalarni e'zoz qilish haqida;
- 13) kamtarinlik va tarbiya haqida;
- 14) qadr-qimmat haqida;
- 15) mehmon va mehmondorchilik haqida;
- 16) yaxshi so'z va ezgulik haqida;
- 17) rostgo'ylik va samimiylik haqida;
- 18) ehtiyotkorlik va uquvsizlik haqida;
- 19) tejamkorlik haqida;
- 20) sabr qanoat, matonat haqida;

Ko'rib o'tganimizdek, maqollar bir necha mavzuga bag'ishlangan bo'lib, yaxshitk yomonlik, ezgulik shu kabi va boshqa inson xarakterini fodalovchi maqollar ham keltirib o'tilgan.

Ota-bobolarimizning "Yaxshilik qil, suvga sol, baliq bilur; baliq bilmasa Xoliq bilur", "O'ng qo'ling bersin, chap qo'ling bilmasin" kabi fikrlari mustahkam tarbiya sifatida avlodlarga meros bo'lib qolgan.

Maqollar folkloristik nuqtayi nazaridan folklorshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xalq og'zaki ijodi bo'lgan maqollar to'planib, tasniflangan va kitob holida nashr qilingan. Maqollarning o'rganilishi o'zbek millatining boy tarixini ko'rsatish bilan birga milliy madaniyatini ham o'zida namoyon qiladi.

Maqollarning yaratuvchisi milliy madaniyati shakllangan, madaniyatga ega bo'lgan xalq hisoblanadi. Maqollar kishilarning hayot tajribasidan kelib chiqib aytgan gapi bo'lsada, u yillar davomida shakllanib, ma'lum bir o'zgarmas qolipga solingan madaniyatning bir ko'rinishi hisoblanadi. Maqollarning mazmuniy tomoni haqiqatan ham cheksiz. Maqollar inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi, jamiyatning turmushi, madaniyati, hayoti va tarixini o'zida aks ettiradi. Maqollar xalq donishmandligini ifodalar ekan o'ziga xos, insondagi eng axloqiy sifatlar ma'qullanadigan, ma'naviyat tasdiqlanib, har qanday nuqson, illat qoralanadigan o'ziga xos axloq kodeksi sifatida namoyon bo'ladi.

Ko'pchilik maqollar insonni to'g'ri harakatlanishga undaydi: ular insonga nima qilish kerak-u, nima qilmaslik kerakligini ko'rsatib turadi, salbiy xattiharakatlardan asraydi.

TADQIQOT VA NATIJALAR

Bitiruv malakaviy ishimizning ushbu bobi yaxshilik tushunchasining xalq maqollarida ifodalanishiga bag'ishlanganligi bois, o'zbek xalq maqollari tarkibida hajm jihatidan ko'p va kundalik hayotda faol ishlatiluvchi maqollarning semantikasiga to'xtalib o'tamiz.

Yaxshidan ot qoladi, Yomondan — dod.

Inson hayotda o'zining ezgu ishlari bilan nom qoldiradi. Qancha vaqtlar o'tsa ham, uning yodi kishilar xotirasida muhrlanib qoladi, tillarda yaxshi fikrlar bilan eslanadi. Falonchi odamni hojatini chiqaradigan odam edi, deya eslanadi. Yomon odam esa, o'zidan dod qoldiradi.

Yaxshilik nur keltirar, Yomonlik — zulmat.

Nur yorug'da ham yaltiraydi degan mashoyixlarimiz. Yaxshilik qorong'u zulmatdagi nurdir. Yaxshilik ko'ngilni nurafshon etadi, yomonlik esa, qalbni qorong'u zulmat qariga tortadi.

Yaxshini ko'rib fikr qil, Yomonni ko'rib shukur qil.

Ushbu maqol xalq orasida "Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukur" ko'rinishida ham mavjuddir. Hayotda shunday insonlar borki, ularning hayot yo'li boshqalar uchun ibrat maktabi bo'ladi, ulardek bo'lishga boshqalar ham harakat qiladi. Yaxshi inson o'zi bilan yaxshi nom qoldiradi. Ba'zida yomon xislatli kishilarni ko'rib, ulardek bo'lmaganligimizga shukur qilamiz. Jamiyatimizga xavf soladigan, nifoq tushuradigan kishilardan uzoqroq bo'lishga harakat qilamiz.

Yaxshi bir tavba qiladi, Yomon — yuz.

Ezgulikni diliga tuggan odam yomonlik qilishdan qochadi. Xato qilib qo'yganida ham, tavba qilib, buni boshqa takrorlamaslikka harakat qiladi. Yomon odam esa har qilgan yomonligida tavba qilsa-da, bu ishdan tiyilmaydi.

Yaxshini so'ksang, suyagidan o'tar, Yomonni ursang, terisidan o'tar.

Yaxshi odam yomon gap eshitsa, yuzi shuvut bo'ladi. Eshitgan gapi uning suyaksuyagigacha botadi. Yomon odam esa yomon gap yo'lda qolib, ursang ham ta'sir qilmaydi.

Yaxshi oshini yer, Yomon — boshini.

Yaxshilik va ezgulik insonni kamolotga yetaklaydi. Inson qilgan yaxshiliklari evaziga rahmat eshitadi, uning mevasidan bahramand bo'ladi. Yomonlikni ko'ngliga keltirgan, uni amalga oshirgan inson esa oxir-oqibatda boshini ushlab qoladi.

Yaxshi suydirar, yomon so'ndirar.

Yaxshi odam o'zining ezguligi bilan insonlarning qalbini yoritadi, ularni suydiradi.

Yomon odam esa o‘zining harakatlari, gap-so‘zlari bilan boshqalarning ko‘nglini og‘ritadi.

Yaxshi turmas, yomon o‘lmas.

Xalqimizda “Yomonga o‘lim yo‘q” degan gap bor. Yaxshi inson vafot etib ketganidan keyin ham insonlar qalbida barhayot yashaydi. Odam deb yashagan odam doimo tirik bo‘ladi. Yomonlik qilishni odat qilgan odam esa, tirik bo‘lsa-da, insonlar naznida go‘yoki o‘lik singari bo‘ladi.

Yaxshining bolasi to‘rga tortar,

Yomonning bolasi — eshikka.

Yaxshi odam farzandini ham yaxshi tarbiya qiladi. Tarbiyasi orqasidan yaxshi gap eshitadi, martabasi ham ulug‘ bo‘ladi. Farzandi orqasidan har doim uyning to‘ri uniki bo‘ladi. Yomon odamning bolasi esa noqobilligi bilan ota-onasini uyatga qo‘yadi.

Yaxshining nasihatiga kirmagan, Yomonning yo‘liga yurar.

Ushbu maqolda yaxshilikning to‘g‘ri yo‘lga boshlashi, yaxshi odamning nasihatiga kirmagan odam yomonlikning qurboni bo‘lishi o‘z aksini topgan.

Yaxshi chechakka bolari qo‘nar.

Mevali daraxtga hamma tosh otadi. Uning mevasidan bahramand bo‘lishadi. Yuqorida keltirilgan maqolda chechak, bolari timsollari orqali inson shaxsiyati o‘z ifodasini topgan. Yaxshi fazilatli inson xuddi chechak timsolidek, undan “shira”sidan bahramand bo‘lish uchun bolari singari insonlar talpinadilar. Yaxshi inson mevali daraxt kabi deb aytib o‘tdik, bu kabi insonlar o‘zlarining yaxshi fazilati, go‘zal xulqi bilan insonlar hojatini chiqaradi.

Antropotsentriklik. Maqol har doim insonga murojaat qiladi. Maqol insonga yashashni o‘rgatadi. Unga biron hatti-harakatni amalga oshirishni buyuradi yoki uni man etadi. Maqollarda hayvonot yoki narsa nomi ostida inson tushuniladi.

Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar, Yomonga yaqin yursang, olasi.

Tilning antroposentrik tadqiqiga doir N.Mahmudovning quyidagi fikrlari ushbu masala mohiyatini shunday umumlashtiradi: “Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antroposentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi.

Antropotsentriklik va badiiy matnda inson konsepsiyasi to‘g‘risida N. M. Churilina, N. V. Chesnokova va O. V. Botayevalarning ilmiy ishlarida ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA

Shu tarzda maqol o‘zining tashqi soddaligiga qaramay murakkab hodisa hisoblanadi. Bir paremiologik birlik o‘laroq u mantiq, semiotika, lingvistika, folkloristika va boshqa fanlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilishi mumkin. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, yaxshilik har doim yomonlik va yovuzlik ustidan g‘alaba qilishi, insonni yaqinlariga, atrofdagilarga mehr-oqibatli bo‘lishga chorlashi

maqollarimizda o‘z aksini topgan. Maqollar orqali o‘zbek xalqining tarixi qadimiyligini, milliy-madaniyati naqadar kuchli va mustahkamligini, mentalitetining yuqori darajadiligini, madaniyatning tilda namoyon bo‘lishini dalillab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. –T.:O‘zbekiston, 2017.–103 b.
2. Sh. Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”.
3. Sh. Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”.
4. Matchonov S., Shojalilov A.va boshqalar. O‘qish kitobi. 4- sinf uchun darslik.- Toshkent, “Yangiyul Poligraph servise”, 2017.
5. Matchonov S., G‘ulomova X., Dolimov Z. 4-sinfda o‘qish darslari.- Toshkent: “Yangiyul Poligraph servise”, 2017.
6. Matchonov S., G‘ulomova X. va boshqalar. Boshlang‘ch sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.- Toshkent: , “Yangiyul Poligraph servise”, 2008.
7. Nazarova H., Anorboyeva A. O‘qish darsi- nafosat olami // Boshlang‘ich ta’lim, 2008, 11-son, 5-
8. Qosimova K., Matchonov S. , G‘ulomova X., Yo‘ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.
9. G‘afforova T, Nurullayeva Sh. O‘qish kitobi 2-sinf. Toshkent-2016